

**TASVIR VA IFODA VOSITALARINING BADIY TARJIMADA SAQLAB
QOLINISHI (Umar Sayfiddin “Ont” hikoyasi misolida)**

Tojiyeva Afro'za

Tel: +998946674556; Email:

TDSHU stajyor-o 'qituvchisi

tojiyevaa07029@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston.

Annotatsiya. Mazkur maqolada Umar Sayfiddinning “Ont” hikoyasi va uning o‘zbek tiliga qilingan tarjimasi (Anora Olimjonova tarjimasi) tahlilga tortilgan. Hikoya tarkibidagi tasvir va ifoda vositalati bo‘lmish o‘xshatish va mubolag‘a san’atlari na’munalari topilgan va qay darajada o‘zbek tiliga tarjima qilingani o‘rganib chiqilgan. Tadqiqot ishining yana bir jihat tarjimada mahorat bilan tarjima qilingan san’at na’munalari alohida, tarjimada biroz kamchilikka yo‘l qo‘yilgan qismlari alohida qilib berilgan.

Kalit so‘zlari: Umar Sayfiddin, badiiy tasvir vositalari, badiiy tarjima, o‘xshatish, istiora, kinoya, metafora.

Kirish. Adabiyot san'atining qadimiyligi inson qalbining nozik tuyg‘ularini ifodalashga bo‘lgan cheksiz intilish bilan chambarchas bog‘liq. Asrlar davomida so‘zning sehridan foydalanib, voqelikni shunchaki tasvirlashdan ko‘ra chuqurroq ma’no beruvchi usullar yaratilgan. Adabiyotning asl qudrati aynan badiiy tasvir va ifoda vositalarida namoyon bo‘ladi. Bu vositalar hikoyani rivojlantirishdan tashqari, o‘quvchining tasavvurini jonlantirish, uning his-tuyg‘ulariga ta’sir o‘tkazish va asarning mohiyatini chuqurroq tushunishga xizmat qiladi.

Badiiy asar faqatgina voqealardan iborat emas, balki jonli manzaralar, chuqurma’noli belgilar va kuchli ifodalarning o‘zaro uyg‘unligidir. Yozuvchining har bir so‘zi, jumlesi, qahramonning bir nigohi yoki tabiatning bir tasviri ortida ulkan bir dunyo yashirin bo‘ladi. Bu dunyoni kashf etish esa adabiyotshunoslikning eng muhim vazifalaridan biridir. Badiiy tasvir va ifoda vositalari — masalan, metafora, metonimiya, o‘xshatish (tashbeh), mubolag‘a, istiora va jonlantirish (tashxis) kabi usullar – oddiy so‘zlarga yangi ruh va ma’no bag‘ishlaydi. Ular asarga estetik qiymat berish bilan birga, o‘quvchining tahliliy fikrlash qobiliyatini ham rivojlantiradi.

Ushbu maqolada, biz adabiyotning ushbu asosiy qurilish elementlarini chuqur o‘rganamiz. Har bir vositaning nazariy asoslari, adabiy asarlardan olingan yorqin misollar va ularning asar matniga kiritgan ma’no-vazifalarini tahlil qilamiz. Maqolamizning maqsadi, nafaqat bu vositalarning nima ekanligini tushuntirish, balki ularning adabiy matnning qudrati va chuqurligini qanday yaratishini ko‘rsatishdan

iborat. Bu mavzu bo‘yicha olib borilgan tahlillar, adabiyotga bo‘lgan munosabatimizni tubdan o‘zgartirib, har bir so‘zning ortidagi katta san’atni ko‘rishga yordam beradi. Ma’lumki, “badiiy asarda narsa-hodisalarni jonli tasvirlash, his-tuyg‘u va kechinmalarni yorqin ifodalashga xizmat qiluvchi til vositalari” goh tasviriy vositalar va ifodaviy vositalar sifatida alohida-alohida, goh badiiy tasvir va ifoda vositalari deb birgalikda yuritiladi.¹

Tasvir vositalariga jonlashtirish, sifatlash, o‘xshatish, istiora, mubolag‘a, litota, allegoriya, sarkazm, ironiya, obrazli parallelizm, ramziy obraz, allegorik obraz kabilar kirsa, ifoda vositalariga turli takrorlar, ritorik so‘roq va murojaatlar, metonimiya, sinekdoxa, kinoya, ramz, majoz, alliterasiya, assonans, ellipsis, inversiya, arxaizm, dialektizmlar kiradi deb ajratiladi²”

Aslida ularni bunday ajratish uncha to‘g‘ri emas. Chunki ular badiiy matnda, asar mazmuniga bog‘liq holda birgalikda “muayyan badiiy vazifani bajaradi, tasvirlanayotgan voqeа-hodisani va unga xos xususiyatlarni yanada bo‘rttirib va umumlashtirib ko‘rsatishda muhim vosita bo‘ladi³”

Maqsad va vazifalar: Umar Sayfiddin “Ont” asaridagi badiiy tasvir vositalarini aniqlash, aniqlangan badiiy tasvir va ifoda vositalarini turlarga ajratish, aniqlangan tasvir va ifoda vositalarini tarjimada qay darajada jo‘rsatib bergenligini aniqlash bu maqolaning asosiy maqsadlari hisoblanadi.

Usullar: Umar Sayfiddin “Ont” asarining asl nusxasi va o‘zbekcha tarjimasi qiyoslash va tahlil qilish usulidan foydalanildi.

Tadqiqot manbasi: Umar Sayfiddin “Ont” asari mu maqolaning tadqiqot manbaasi hisoblanadi.

Tadqiqot obyekti: Tadqiqotning obyekti sifatida Umar Sayfiddin “Ont” asaridagi tasvir va ifoda vositalari va uning tarjimada kas etishi hisoblanadi. Ya’ni tarjimada asl nusxadagi tasvir va ifoda vositalari qay darajada berilganligi o‘rganib chiqiladi.

Natija va mulohazalar: tarjimada to‘laqonli saqlangan gaplarga misollar.

Birçok yerleri unutulan eski, uzak bir rüya gibi oldu⁴.

Bir qancha joylari unut bo‘lgan eski, uzun tushga aylangan edi⁵.

“Birçok yerleri unutulan eski, uzak bir rüya gibi oldu” jumlesi o‘zbek tiliga “Bir

¹ Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: “Akademnashr”, 2010. 51-бет.

² Бу хакда қаранг: Ҳотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1983. 78; 133–134-бетлар; Куронов Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: “Akademnashr”, 2010. 51–52-бетлар.

³ Ҳотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1983. 78-бет.

⁴ Ömer seyfittin dizisi 1. Üçüncü basım. İstanbul, temmuz 2009. 118-s.

⁵ Turk adabiyotining sara asarlari. Umar Sayfiddin (hikoyalari). –Т., 2012. –В. 99.

qancha joylari unut bo‘lgan eski, uzun tushga aylangan edi” deb tarjima qilingan. Bu tarjimada matndagi o‘xshatish san’ati to‘liq saqlangan. Asl matnda “eski, uzak bir rüya” (eski, uzoq bir tush)ga o‘xshatish orqali unutilgan joylarning xotirada qolgan g‘ira-shira, noaniq holati ifodalangan. Tarjimon bu o‘xshatishni o‘zbek tilida “eski, uzun tush” deb, so‘zma-so‘z emas, balki ma’noga yaqinroq bo‘lgan “uzun” so‘zini qo‘sib tarjima qilgan. Bu, Umar Sayfiddinning uslubini hisobga olgan holda, unutilgan xotiralarning naqadar uzoq vaqtga tegishli ekanligini ifodalashga xizmat qiladi. “Aylangan edi” fe‘li esa, “bo‘ldi” so‘zidan ko‘ra jarayonni yaxshiroq ko‘rsatadi. Natijada, tarjima nafaqat asl matnning ma’nosini, balki uning badiiy ta’sirini ham muvaffaqiyatli yetkazib bergen.

Sabahlari annem beni bir bebek gibi pencerenin kenarina oturtur, dersimi tekrar ettirir, sütümü içirirdi⁶.

Ertalablari oyim meni yosh bolalardek deraza yoniga o‘tqizar, darsimni takrorlatar, sutimni ichirar edi⁷.

“Sabahlari annem beni bir bebek gibi pencerenin kenarina oturtur, dersimi tekrar ettirir, sütümü içirirdi” jumlesi o‘zbek tiliga “Ertalablari oyim meni yosh bolalardek deraza yoniga o‘tqizar, darsimni takrorlatar, sutimni ichirar edi” deb tarjima qilingan. Ushbu tarjimada asl nusxadagi o‘xshatish san’ati mukammal saqlangan. Asl matndagi “bir bebek gibi” (bir chaqaloq kabi) iborasi, tarjimada “yosh bolalardek” deb o‘girilgan, bu esa bolaning naqadar yosh va himoyaga muhtoj ekanligini ifodalashga xizmat qiladi. Bu o‘xshatish, onaning bolaga bo‘lgan mehrli va g‘amxo‘r munosabatini ta’kidlaydi. Tarjima so‘zlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘girgan holda, matnning emotsiyonal va badiiy qatlamini ham to‘liq yetkazib bergen. Natijada, o‘zbekcha matn ham o‘quvchida asl nusxadagi his-tuyg‘ularni uyg‘ota oladi.

O kadar hızlı çekmişti ki, ertesi günü bile yanıyordu. Kıpırmızıydı⁸.

Shu qadar qattiq cho‘zgan ediki, ertesi kun ham olov bo‘lib yonardi⁹.

“O kadar hızlı çekmişti ki, ertesi günü bile yanıyordu. Kıpırmızıydı” jumlesi o‘zbek tiliga “Shu qadar qattiq cho‘zgan ediki, ertesi kun ham olov bo‘lib yonardi” deb tarjima qilingan. Bu tarjimada matndagi abartma (mubolag‘a) san’ati to‘liq saqlangan. Asl matnda quloqning og‘rig‘i va qizarishi “ertesi günü bile yanıldır” (ertesi kun ham yonardi) va “kipırmızıydı” (qip-qizil edi) iboralari orqali ifodalangan. Tarjimonda bu ifodalar “ertesi kun ham olov bo‘lib yonardi” shaklida mohirona o‘girilgan. Bu so‘zma-so‘z tarjima emas, balki ma’noni kuchaytirishga qaratilgan ijodiy yondashuvdir. Quлоqning og‘rig‘i haqiqatda yonmasligi aniq bo‘lsa-da, bu ta’bir orqali og‘riqning shiddati va qattiqligi bo‘rttirib ko‘rsatilgan. Shu bilan birga, “kipırmızıydı” (qip-qizil edi) iborasi tarjimada tushirib qoldirilgan, bu esa matnning to‘laqonli tasvirini biroz

⁶ O‘sha asar. 119-s.

⁷ Turk adabiyotining sara asarlari. Umar Sayfiddin (hikoyalari). –T., 2012. –B. 99.

⁸ Ömer seyfettin dizisi 1. Üçüncü basım. İstanbul, temmuz 2009. 121-s.

⁹ O‘sha asar. –B. 101.

zaiflashtirgan. Shunga qaramay, tarjima asosiy badiiy san'atni muvaffaqiyatli aks ettirgan.

Gözleri ateş gibi parlayan köpek bize yetişmişti¹⁰.

Ko‘zları olovdek yonayotgan it bizga yetib olgan edi¹¹.

“Gözleri ateş gibi parlayan köpek bize yetişmişti” jumlesi o‘zbek tiliga “Ko‘zları olovdek yonayotgan it bizga yetib olgan edi” deb tarjima qilingan. Bu tarjimada asl matndagi o‘xshatish san’ati to‘liq saqlangan. Asl matnda itning ko‘zlarining yorqinligi va xavfliligi “ateş gibi” (olvodek) deb, ya’ni tabiatning qudratli kuchi bilan taqqoslangan. Bu ibora itning naqadar xavfli va yirtqich ekanligini ifodalashga xizmat qiladi. O‘zbekcha tarjimada “olvodek yonayotgan” shaklida mohirona o‘girilgan. Bu tarjima ham matnning badiiy ruhini, ham uning ma’nosini to‘liq aks ettirgan.

Birinci boğumun üstünde hâlâ beyaz çizgi şeklinde duran bir küçük yara izi, bence çok kutsaldır¹².

Bu barmog‘ining birinchi bo‘g‘imi ustida chandiqday qolgan oq chiziq men uchun juda muqaddas¹³.

“Birinci boğumun üstünde hâlâ beyaz çizgi şeklinde duran bir küçük yara izi, bence çok kutsaldır” jumlesi o‘zbek tiliga “Bu barmog‘ining birinchi bo‘g‘imi ustida chandiqday qolgan oq chiziq men uchun juda muqaddas” deb tarjima qilingan. Ushbu tarjimada asl matndagi o‘xshatish san’ati mohirona saqlangan. Asl matnda qahramonning qo‘lidagi yara izi “beyaz çizgi şeklinde” (oq chiziq shaklida) deb ifodalangan. Tarjimonda bu ibora “chandiqday qolgan oq chiziq” deb berilgan. “Chandiqday” so‘zi, asl matnda aniq aytilmagan bo‘lsa-da, yara izining keyinchalik chandiqa aylanganini bildirib, o‘xshatishni kuchaytirgan. Bu, tarjimaning nafaqat so‘zma-so‘z o‘girishga, balki matnning badiiy ruhini saqlab qolishga intilganidan dalolat beradi. Natijada, o‘zbekcha tarjima asl matnning ma’nosini va yara iziga berilgan yuksak ma’naviy qadriyatni to‘liq yetkazgan.

Mavi gözleri pek sert parlar, gaga gibi iri, sarı burnuyla, tüyleri dökülmüş hain, hasta bir çaylağa benzerdi¹⁴.

Uning moviy ko‘zları o‘tkir, chaqnab turar, sal sotqin, kasal kalxatga o‘xshardi¹⁵.

“Mavi gözleri pek sert parlar, gaga gibi iri, sarı burnuyla, tüyleri dökülmüş hain, hasta bir çaylağa benzerdi” jumlesi o‘zbek tiliga “Uning moviy ko‘zları o‘tkir, chaqnab turar, sal sotqin, kasal kalxatga o‘xshardi” deb tarjima qilingan. Bu tarjimada asl nusxadagi o‘xshatish san’ati qisman saqlangan. Asl matnda Büyük Hoca’ning burni “gaga gibi” (gaga kabi) deb aniq o‘xhatilgan, ammo bu o‘xshatish o‘zbekcha

¹⁰ Ömer seyfittin dizisi 1. Üçüncü basım. İstanbul, temmuz 2009. 125-s.

¹¹ Turk adabiyotining sara asarlari. Umar Sayfiddin (hikoyalari). –T., 2012. –B. 104.

¹² O‘sha asar. 126-s.

¹³ O‘sha asar. –B. 105.

¹⁴ Ömer seyfittin dizisi 1. Üçüncü basım. İstanbul, temmuz 2009. 120-s.

¹⁵ Turk adabiyotining sara asarlari. Umar Sayfiddin (hikoyalari). –T., 2012. –B. 100.

tarjimada tushirib qoldirilgan. Shuningdek, uning yuzi “tüyleri dökülmüş hain, hasta bir çaylağa benzerdi” (tuklari to‘kilgan xoin, kasal kalxatga o‘xshardi) deb tasvirlangan. Bu tasvir, personajning tashqi ko‘rinishi bilan ichki dunyosi o‘rtasida bog‘liqlik o‘rnatadi. Tarjimada bu o‘xshatish saqlanib qolgan bo‘lsa-da, "gaga kabi" detali olib tashlangani sababli, tasvirning to‘laqonliligi va ta’sirchanligi biroz kamaygan. Natijada, tarjima umumiy ma’noni yetkazib bersa-da, asl matndagi badiiy noziklikni to‘liq aks ettira olmagan.

Sinf kapısının açılmayan kanadında sallanan “geldi – gitti” levhası yassi, cansız bir yüz gibi bize bakar, kalın duvarların tavana yakın dar pencereelerinden giren donuk bir aydınlichkeit, durmadan bağırın, haykırarak okuyan çocukların susmaz, keskin çığlıklarıyla sanki daha da ağırlaşır, bulanırdı...¹⁶

Sinf eshigining ochilmaydigan qanotida ilinib turadigan “keldi-ketdi” lavhası yassi, jonsiz yuz kabi bizga boqib turar, qalin devorning shiftga yaqin tor derazalaridan xira yorug‘lik tushib turardi. Bolalar to‘xtamasdan baqirib, baland ovozda qiy-chuv qilib o‘qishardi¹⁷.

“Sinf kapısının açılmayan kanadında sallanan “geldi – gitti” levhası yassi, cansız bir yüz gibi bize bakar, kalın duvarların tavana yakın dar pencereelerinden giren donuk bir aydınlichkeit, durmadan bağırın, haykırarak okuyan çocukların susmaz, keskin çığlıklarıyla sanki daha da ağırlaşır, bulanırdı...” jumlesi o‘zbek tiliga “Sinf eshigining ochilmaydigan qanotida ilinib turadigan “keldi-ketdi” lavhası yassi, jonsiz yuz kabi bizga boqib turar, qalin devorning shiftga yaqin tor derazalaridan xira yorug‘lik tushib turardi. Bolalar to‘xtamasdan baqirib, baland ovozda qiy-chuv qilib o‘qishardi” deb tarjima qilingan. Ushbu tarjimada asl matndagi o‘xshatish va jonlantirish san’atlari qisman saqlangan.

“Keldi-ketdi” lavhasining “yassi, jonsiz bir yuz kabi” bo‘lishi o‘xshatish san’atiga misol bo‘lsa, uning “bizga boqib turar” degan xarakterga ega bo‘lishi jonlantirish san’ati hisoblanadi. Tarjima bu ikki san’atni to‘liq saqlab qolgan. Biroq, asl matndagi “donuk bir aydınlichkeit... susmaz, keskin çığlıklarıyla sanki daha da ağırlaşır, bulanırdı” (xira yorug‘lik... to‘xtovsiz, keskin qichqiriqlar bilan go‘yo yanada og‘irlashar, xiralashar edi) qismi tarjimada tushirib qoldirilgan. Bu qism, yorug‘lik va tovush orasidagi ziddiyatni ifodalab, maktab muhitining og‘ir va noqulayligini tasvirlaydi. Bu muhim badiiy detalning tarjimada yo‘qligi, matnning emotsional va estetik ta’sirini sezilarli darajada susaytirgan. Shunga qaramay, tarjima umumiy ma’noni yetkazib bergen.

Tarjimada qisman saqlangan va tarjimada tushirib qoldirilgan gaplarga misollar. Büyük Hoca, arkasını bize çevirmiş, yavaş yavaş, bir sümüklüböcek kadar

¹⁶ O‘sha asar. 120-s.

¹⁷ O‘sha asar. –B. 100.

ağır, namazını kılıyordu¹⁸.

Katta domla esa bizga orqa o‘girilib, sekin harakat qiladigan hashorotga o‘xshab namoz o‘qiyotgan edi¹⁹.

“Büyük Hoca, arkasını bize çevirmiş, yavaş yavaş, bir sümüklüböcek kadar ağır, namazını kılıyordu” jumlesi o‘zbek tiliga “Katta domla esa bizga orqa o‘girilib, sekin harakat qiladigan hasharotga o‘xshab namoz o‘qiyotgan edi” deb tarjima qilingan. Bu tarjimada matndagi o‘xshatish (tashbeh) san’ati qisman saqlangan. Asl matnda domlaning harakatlari “bir sümüklüböcek kadar ağır” (bir shilliqurt kabi sekin) deb, aniq bir jonivorga o‘xhatilgan. Bu o‘xshatish nafaqat harakatning sekinligini, balki ma’lum darajada g‘alati va kulgili holatni ham ifodalaydi. O‘zbekcha tarjimada esa “shilliqurt” so‘zi o‘rniga “hasharot2 deb umumlashtirilgan. “Hasharot” so‘zi “sümüklüböcek” so‘zining ma’nosini to‘liq bera olmaydi va asl matndagi o‘xshatishning ta’sirchanligini pasaytiradi. Shu sababli, tarjima umumiyl ma’noni yetkazib bersa-da, badiiy detalni saqlab qolishda xatolikka yo‘l qo‘ygan.

Belleğimde sonsuz ve mor bir tanyeri ülkesi gibi kalan doğduğum yeri gözümün önüne getirmek isterim²⁰.

Tug‘ilgan joyimni ko‘z o‘ngimga keltirmoqchi bo‘laman²¹.

“Belleğimde sonsuz ve mor bir tanyeri ülkesi gibi kalan doğduğum yeri gözümün önüne getirmek isterim” jumlesi o‘zbek tiliga “Tug‘ilgan joyimni ko‘z o‘ngimga keltirmoqchi bo‘laman” deb tarjima qilingan. Bu tarjimada matndagi o‘xshatish san’ati to‘liq tushirib qoldirilgan. Asl matnda “tug‘ilgan joy” shunchaki bir joy emas, balki “sonsuz ve mor bir tanyeri ülkesi gibi” (cheksiz va binafsharang tong yeri mamlakatidek) deb tasvirlangan. Bu o‘xshatish orqali yozuvchi tug‘ilgan joy xotirasining naqadar go‘zal, afsonaviy va cheksiz ekanligini ifodalashga harakat qilgan. Uning xotirasi shunchaki bir joyni emas, balki sehrli, hayoliy bir mamlakatni eslatadi. O‘zbekcha tarjimada esa bu murakkab va go‘zal tasvir yo‘q. Uning o‘rniga faqatgina “Tug‘ilgan joyimni ko‘z o‘ngimga keltirmoqchi bo‘laman” degan oddiy va ma’lumotni yetkazuvchi ibora qo‘llanilgan. Tarjimon asl matndagi badiiy tasvirning ruhi va estetik qatlamini emas, balki faqat uning yuzaki ma’nosini olgan. Bu esa tarjimaning badiiy qiymatini sezilarli darajada pasaytirgan.

Ve ulusumuzdan, sezgilerle bezeli Türkükten uzaklaşıkça, daha kokuşmuş derinliklerine yuvarlandığımız karanlık uçurumun, bu ahlâk ve bozuculuk, vefasızlık ve bencillik, bayağılık ve miskinlik cehenneminin dibinde, üzgün ve şartlanmış kıvrانırken, saf ve nurdan geçmiş, kaybolmuş bir cennetin gerçekten uzak bir serabı halinde karşısında açılır... Beni mutlu eder. Saatlerce Mistik’ın anısıyla, bu aziz ve soylu üzüntünün eskiyip, unutuldukça daha çok değeri artan tatlı hüzünlü açısından tat

¹⁸ Ömer seyfittin dizisi 1. Üçüncü basım. İstanbul, temmuz 2009. 122-s.

¹⁹ Turk adabiyotining sara asarlari. Umar Sayfiddin (hikoyalari). –T., 2012. –B. 102.

²⁰ Ömer seyfittin dizisi 1. Üçüncü basım. İstanbul, temmuz 2009. 126-s.

²¹ Turk adabiyotining sara asarlari. Umar Sayfiddin (hikoyalari). –T., 2012. –B. 105.

duyarım...²². Ushbu gap tarjima jarayonida butkul tashlab ketilgan.holbuki bu matn ichida ham tasvir va ifoda vositalariga misollar mavjud.

Xulosa: Tarjimalarning ba’zilari muvaffaqiyatli bo‘lgan bo‘lsa, ba’zilari asl nusxaning badiiy ruhini to‘liq yetkazib bera olmagan. Masalan, “bir bebek gibi” va “gözleri ateş gibi” kabi o‘xshatishlar mohirona tarjima qilingan, bu esa asl matnning badiiy ta’sirini saqlab qolgan. “ertesi günü bile yanıyordu” kabi mubolag‘ali ifodalar o‘zbek tiliga “olov bo‘lib yonardi” deb ijodiy tarzda o‘girilgan, bu esa ma’noni yanada kuchaytirgan. Ammo, ba’zi muhim badiiy detallar tarjimada tushirib qoldirilgan. Masalan, “gaga gibi” o‘xshatishi yoki “sümüklüböcek” kabi aniq tasvir “hasharot” deb umumlashtirilgan. Eng muhimi, jamiyatdagi axloqiy tushkunlikni ifodalovchi so‘nggi muhim jumlalar butunlay tashlab ketilgan, bu esa tarjimonning hikoyaning chuqur falsafiy ma’nosini to‘liq yetkazib bera olmaganini ko‘rsatadi. Xulosa qilib aytganda, tarjimalar bir qator ijobiy jihatlarga ega bo‘lsa-da, ularda ba’zi kamchiliklar ham mavjud. Tarjimon so‘zlarni emas, balki g‘oyani va badiiy ruhni to‘liq yetkazishga harakat qilishi kerak.

Foydalaniman adabiyotlar ro‘yxati:

1. Salomov G‘. Tarjima nazaryasi asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1983.
2. Ochilov E. Tarjimashunoslikning nazariy masalalari (o‘quv qo‘llanma). – T.: 2014. 272 b
3. Hamidov X. O‘zbek-turk tarjimachiligining dolzarb muammolari. – Toshkent: 2019. – 128 b.
4. Hamidov X. O‘bekchadan turkchaga nasriy tarjima muammolari. –Toshkent: ToshDSHI, 2014. – 148 b.
5. Turk adabiyotining sara asarlari. Umar Sayfiddin (hikoyalari). –T., 2012.
6. Ömer seyfittin dizisi 2. Üçüncü basım. İstanbul, aralık 2009.
7. М а м а ж о н о в З., Ш е р а л и е в а М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: “Akademnashr”, 2010. 51–52-бетлар.
8. Ҳ о т а м о в Н., С а р и м с о к о в Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1983.

²² Ömer seyfittin dizisi 1. Üçüncü basım. İstanbul, temmuz 2009. 127-s.